4-SINF TARBIYA DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Isayeva G.P.
GulDPI “Pedagogika va psixologiya”kafedrasi professori v.b.
e-mail: isayevaguli06@gmail.com
Egamberdiyeva X.T.
Al-Fraganus I-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisda 4-sinf tarbiya darslarida raqamli texnologiya-lardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonlarini yangicha metodlar bilan boyitishga imkon beradi. Raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari, o‘qituvchilarning ijodkorligini oshirishda tutgan o‘rni va ta'lim samaradorligini oshirishda raqamli yondashuvlarning afzalliklari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar ma’lumotlarni qayta ishlash va almashishni kafolatlaydi. Bu ma’lumotlarni avtomatik ravishda yig‘ish, tushunish, tahlil qilish va ishlatish tehnologiyalari hisoblanadi. Raqamlashtirish, ma’lumotlarni dasturlash, aniq ro‘yhatga olish, ma’lumotlarni tahlil qilish, mashinani o‘rganish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zi: raqam, raqamlashtirish, texnologiya, kafolat,ma’lumot, yig‘ish, tushunish, tahlil, ishlatish, dastur, dasturlash, marketing, sotish,xizmat,axborot, komryuter, internet, mobil, sun’iy intellect, saqlash,uzatish, kiberxavfsizlik, telekommunikatsiya.

Annotation. This article explores the effective use of digital technologies in 4th-grade character education lessons. Today, digital technologies enable educators to enhance the

educational process with new methods. Additionally, the article discusses the didactic potential of digital technologies, their role in enhancing teachers' creativity, and the advantages of a digital approach in improving learning effectiveness. Digital technologies ensure the processing and exchange of information. These technologies automatically collect, interpret, analyze, and utilize data. Digitization includes processes such as data programming, precise recording, data analysis, and machine learning.

Keywords: number, digitization, technology,warranty, information, collection, understanding, analysis, Use, Application, Programming, marketing,Sales,Service, Information, Computer, internet, mobile, artificial intellect,storage, transmission, cybersecurity, telecommunications.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalaridan foydalanish bugungi kun talablaridan biridir. Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlar sog‘liqni saqlash, transport, mudofaa va milliy xavfsizlik kabi ko‘plab sohalarda shu qatorda uzluksiz ta’lim jarayonida ham raqamli texnologiyalardan foydalanib kelmoqda.Ushbu texnologiyalarning barcha darajalari diapozonda bir xil signal holatini ifodalaydi. Raqamli texnologiyalar ma’lumotlarni qayta ishlash va almashishni kafolatlaydi. Bu ma’lumotlarni avtomatik ravishda yig‘ish, tushunish, tahlil qilish va ishlatish tehnologiyalari xisoblanadi. Raqamlashtirish, ma’lumotlarni dasturlash, aniq ro‘yhatga olish, ma’lumotlarni tahlil qilish, mashinani o‘rganish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish, marketing, sotish va xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda axborotni samarali boshqarish uchun ishlatilish jarayonida qo‘llanilmoqda. Ushbu tehnologiyalar kompaniyalar, tashkilotlar va muassasalarga sifatli qarorlar qabul qilish va faol operatsiyalarni boshqarishda yordam beradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish dunyoda rivojlangan barcha mamlakatlarda juda keng tarqalgan bo‘lib, turli sohalarda keng qo‘llanilib kelmoqda. Bu tehnologiyalar raqamli ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatishga asoslanadi. Shu qatorida ta’lim sohasida ham raqamli texnologiyalar muhim o‘rin egallab kelmoqda. Uzluksiz talimning bir bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich sinfladra ham qo‘llanilmoqda. Boshlang‘ich 4-sinf tarbiya darslarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanilsa,o‘quvchilarning bilim o‘lishi va ko‘nikma,malakalari shakllanisiga katta yordam bo‘ladi.Tarbiya darslarida berilgan turli xil vazifalarni bajarishda, **komryuter texnologiyalaridan** foydalanish yani ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilishda ishlatiladi. **Internet** texnologiyalari orqali 4-sinfga tarbiya faniga oid ma’lumotlarni uzatish, ijtimoiy tarmoqlardan olish, elektron pochta orqali jo‘natish va boshqa aloqa vositalaridan keng qo‘llanilib boriladi.O‘quvchilarda 4-sinfga tarbiya faniga oid ma’lumotlarni **mobil texnologiyalar** orqali yani smartfonlar va planshetlar orqali raqamli ilovalar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.O‘qituvchilar esa 4-sinfga tarbiya faniga oid ma’lumotlarni **ma’lumotlar bazasidan** katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash va boshqarish amalga oshiradilar. sun’iy intellekt algoritmlar orqali turli xil vazifalarni avtomatlashtirish va optimallashtirish ishlarini **sun’iy intellekt** jarayonida qollaydilar. **Ishlab chiqarish va avtomatizatsiya** jarayinida raqamli tehnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda qo‘llaniladi, bu esa 4-sinf tarbiya dars jarayonida ta’lim samaradorlikni oshiradi.

Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar kundalik davomida o‘quvchilarning bilim olishlarini, ko‘nikma malakalarini shakllanishini osonlashtiradi va ta’lim samaradorligini oshirishda ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi. Ularning rivojlanishini yangi imkoniyatlarning yaratilishi uchun xizmat qiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalar axborotni raqamli shaklda qayta ishlash, saqlash va uzatish imkonini beruvchi texnologiyalar to‘plami 4-sinf o‘quvchilarning tarbiya fani dars jarayonida ta’lim samaradorligini oshiradi. Ushbu texnologiyalar so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, jamiyatning turli sohalaridan biri bo‘lgan ta’lim tizimida ham keng tarqaldi. Quyida raqamli tehnologiyalarning asosiy jihatlari 4-sinf tarbiya fani darslarida samarali foydalanilsa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. **Raqamli ma’lumotlardan** foydalanishda 4-sinf tarbiya faniga oid ma’lumotjar raqamlar ko‘rinishida beriladi va o‘quvchilarga uzatiladi.Bu ma’lumotlarni o‘quvchilar aniqlab o‘zlarida ishonch hosil bo‘ladi va qayta ishlash imkoni

tug‘uladi.**Qayta ishlashda** o‘quvchilar raqamli signalni analog signalga qaraganda osonroq qayta ishlash mumkin. Kompyuterlar, smartfonlar va boshqa qurilmalar orqali turli xil operatsiyalarni bajarib boradilar.**Saqlashda** 4-sinf tarbiya faniga oid katta hajmdagi ma’lumotlarni kompakt va uzoq muddatli saqlash imkonini beradi.**Uzatishda** 4-sinf tarbiya faniga oid ma’lumotlarni internet va boshqa raqamli tarmoqlar orqali tezkor va ishonchli ma’lumot uzatilishi mumkin.

Uzluksiz ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalar asosida 4-sinf o‘quvchilarning tarbiya fani dars jarayonida ta’lim samaradorligini oshirada q**o‘llanish sohalari** ko‘ra a**xborot tehnologiyalari** yani kompyuter dasturlari, operatsion tizimlar, dasturiy taminot va apparat vositalari xizmat qiladi. **Telekommunikatsiyada** mobil va statsionar aloqa xizmatlari, internet xizmatlari va raqamli televideniyalarda foydalanadi. **Ommaviy axborot vositalarida** raqamli jurnalistika, bloglar, ijtimoiy media platformalari kiradi.Bunda 4-sinf o‘quvchilar tarbiya fani dars jarayonida telekommunikatsiya, Ommaviy axborot vositalarida mavzuga oid materiallar topib o‘rganishlariga qullay imkoniyat tug‘iladi. **O‘yin va ko‘ngilochar o‘yin**lardan tarbiya fanida o‘tiladigan mavzuga oid mobil o‘yinlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida 4-sinf o‘quvchilarning tarbiya fani dars jarayonida ta’lim samaradorligini oshirada **foydali tamonlari** quyidagilardan iborat;

1. **Samaradorlik:** raqamli tehnologiyalar jarayonlarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshiradi.
2. **Qulaylik:** katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor saqlash va uzatish imkoniyati.
3. **Innovatsiya:** yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish uchun keng imkoniyatlar.

Raqamlashtirishning afzallik tamonlari:

1. **Ma’lumotlarni osongina saqlash va qidirish:** elektron ma’lumotlar tez va oson qidirilishi, saqlanishi va boshqarilishi mumkin.
2. **Ish jarayonlarini tezlashtirish:** raqamli tizimlar qo‘llanishi ish samaradorligini oshiradi, vaqt va resurslarni tejaydi.
3. **Masofadan turib ishlash imkoniyati:** ma’lumotlar raqamli shaklda saqlanganda, ularni har qanday joydan olish va boshqarish osonroq bo‘ladi.
4. **Tahlil va qaror qabul qilishni yaxshilash:** raqamli ma’lumotlar asosida aniq va to‘g‘ri tahlillar o‘tkazish, bu esa to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Foydali tamonlari bilan bir qatorda **qiyinchiliklari** ham bor bular quyidagilardan iborat;

- **Kiberxavfsizlik:** ma’lumotlarni himoya qilish muhim muammo hisoblanadi.
- **Shaxsiy ma’lumotlar himoyasi:** shaxsiy ma’lumotlarning mahfiyligini ta’minlash zarurati.
- **Raqamli bo‘linish:** raqamli tehnologiyalarga kirish imkoni cheklangan hududlar.

Raqamli tehnologiyalar dunyoni o‘zgartirib, kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu tehnologiyalar rivojlanishida davom etib, kelajakda yanada katta o‘zgarishlar keltirishi kutilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida 4-sinf o‘quvchilarning tarbiya fani dars jarayonida ta’lim berilsa, ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari osonlashadi. Bunda esa ta’lim tizimi vositalari rolini multimedialar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalari, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dasr mashg‘ulotlarini o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi.

Umumta’lim maktabning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini aqlan etuk,axloqan pok, jismonan baquvvat, manaviy yuksak ijodkor, kreativ yondoshuvchi, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash vazifalari amalga oshirish darkor. Bu, o‘z o‘rnida, ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Mukammal va xalqaro standartlarga raqobatbardosh ta’lim tizimi davlatimizning kelajakdagi intellektual rivojlanishini belgilab beradi.

Raqamli texnologiyalar globallashuv jarayonlari nafaqat jamiyatga, balki yoshlarga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugun zamonaviy bilimlar va ma’lumotlarni o‘zlashtirmagan o‘quvchi raqobatbardosh mutaxassis bo‘lishi mushkul. Shu o‘rinda zamonaviy bilimlar va ma’lumotlarni o‘zlashtirgan o‘quvchi – kelajagini belgilaydi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi.

Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari

Ta’lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uzliksiz ta’limda foydalanish, shu jumladan, umumta’lim maktabning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich 4-sinf tarbiya fani darslarini samarali tashkil etish va unumli foydalanish maqsadga muvoffiqdir.

Umuman olganda, raqamlashtirish zamonaviy dunyoda samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim jarayonlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.ziyo.com
2. http://vacademia.com/
3. http://popplet.com/
4. https://www.twiddla.com/
5. http://flockdraaw.com/
6. http://flockdraaw.com/
7. F.Mulaydinov, A.Abdullayev. “Ta’limda raqamli tehnologiyalarning roli”. 2023-yil.